LEGALTECH VA AN‘ANAVIY HUQUQ O‘RTASIDAGI FARQ

Raimjonova Mohinur Ilhomjonovna
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi
e-mail:raimjonovamohinur32@gmail.com

Anotatsiya: Ushbu maqolada legal tech va an’anaviy huquq o‘rganib chiqilib, ularning farqlari va o‘zaro bog’liqligi tahlil qilinadi. Maqola yozish jarayonida nafaqat “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va boshqa hujjatlardan, balki amaliy kuzatuvlar ham asos bo‘ladi. Xususan, “my.gov.uz”, “lex.uz”, “lex.ai”, “tuzuk.ai”, “e-sud” va shu kabi bir qancha platformalar orqali xizmatlardan foydalanish tajribasi o‘rganladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Legal Tech sohasining bir qancha kamchiliklari bo‘lishiga qaramasdan an’anaviy huquq tizimidan ko‘ra ko‘proq afzalliklarni beradi va yangi platformalar yaratish, sun’iy intellektdan foydalanish va javobgarlik bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Legal Tech, an’anaviy huquq, yuridik xizmatlar, avtomatlashtirish, raqamli savodxonlik, raqamli boshqaruv, smart kontraktlar, huquqiy chatbotlar, huquqiy tahlil.

Anotation: this article will examine legal tech and traditional law and analyze their differences and correlations. In the process of writing an article, not only the strategy “digital Uzbekistan – 2030” and other documents will be the basis, but also practical observations. In particular,“. my.gov.uz”,“. lex.uz”,“. lex.ai”,“. tuzuk.ai”, "e-sud", and the experience of using services through a number of similar platforms learned. The results show that Legal Tech provides more advantages than the traditional law system despite a number of flaws in the industry, and proposed to create new platforms, use artificial intelligence, and improve accountability legislation.

Keywords: Legal Tech, traditional law, legal services, automation, digital literacy, digital management, smart contracts, legal chatbots, legal analysis.

So’ngi kunlarda texnologiyalar hayotimizning barcha sohasiga, shu bilan birgalikda huquq sohasiga ham kirib keldi. Shuning uchun, Legal Tech va an’anaviy huquq tizimi tushunchalarini tahlil qilishni zarur deb topdim. Bu nafaqat nazariy balki, amaliy jihatdan ham dolzarb masala. Hujjatlar aylanishi, electron murojaatlar va shu kabi ishlar raqamlashtirilayotganda menda bir savol tug’ildi, Legal Tech va an’anaviy huquq o‘rtasida qanaqangi farqlar bor va u bizga qanday afzalliklar berishi mumkin? Mavzuning dolzarbligi shundaki, O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi orqali ko‘plab ishl+ar

amalga oshirilmoqda. Huquqning sohalari boyicha yangi platform ava tizimlar yaratilib, hujjatlar raqamlashtirilmoqda. Lekin Legal tech sohasida hali huquqiy tomondan, misol uchun sun'iy intellektdan foydalanish va javobgarlik masalalari to'lliq tartibga solinganligi yo'q.

Xalqaro tajribada Estoniya davlati to'lliq raqamlashtirilib hammasi bir tizimga yani X-Road tizimiga birlashtirilgan. [1] Buyuk Britaniyada huquqiy hujjatlarni sun'iy intellekt orqali tahli qilish uchun Luminance platformasi yo'lga qo'yilgan.[2] Bundan tashqari huquqiy chatbot hisoblangan DoNotPay platformasi yaratilgan. Shu asosida O'zbekiston va xalqaro miqiyosda bajarilgan ishlarni ko'rib tahlil qilaman. Maqsadim – legal techning afzalliklari va kamchiliklarini organish va uning hayotimizda qanday imkoniyatlar bera olishini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot nazariy va amaliy uslublarni birlashtirib olib borildi. Nazariy qisimda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi [3] o'rganib chiqildi. Bu hujjatda 2030-yilga qadar ko'plab sohalar raqamlashtitilishiga oid vazifalar va rejalar belgilab qo'yilgan. Tursunova (2024) fikriga ko'ra, ushbu texnologiyalar ish jarayonini avtomatlashtirish, xatoliklarni kamaytirish va ma'lumotlarni samarali boshqarishga yordam beradi. Shu bilan birga, an'anaviy huquq amaliyotida bu jarayonlar ko'proq qo'lda bajariladi va resurslar sezilarli darajada ko'proq sarflanadi. O'zbekistonda sud va huquqiy tizimni modernizatsiya qilish jarayonida innovatsion texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish zarurligini ta'kidlaydi.[4] Amaliy qismda esa ba'zi platformalardan foydalanib ko'rildi. "my.gov.uz" saytidan oneID tizimi orqali ro'yxatdan o'tilib, yashash joyi to'g'risidagi va o'qish joyi to'g'risidagi ma'lumotnoma olindi. E-sud tizimiga kirib onlayn ariza berish tartiblari ko'rib chiqildi va sud hujjatlari bilan tanishildi.

Tahlil natijasi shuni aniqladiki, Legal Tech huquqiy jarayonlarni texnologiyalar bilan birga amalga oshirganligi sababli an'anaviy huquqdan ko'ra ko'proq imkoniyatlar beradi. An'anaviy huquq esa inson omiliga asoslanganligi uchun ko'p vaqt talab qiladi va ko'plab resurslarni talab qiladi. O'zbekistonda legal tech bo'yich ko'plab tizimlar va platformalar yo'lga qo'yildi. Xususan, "lex.uz", "lex.ai", my.gov.uz", "e-sud" va shu kabi ko'plab platformalar. Bu platformalar fuqarolar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Misol uchun "my.gov.uz" saytini olaylik, bu platforma davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun mo'ljallangan hisoblanadi.[5] Bu platformaga kirish uchun oneID tizmi orqali ro'yxatdan o'tiladi va bizga kerakli bo'lgan xizmatlar masofadan turib, hech qanday navbatlarsiz amalga oshriladi. Bundan tashqari, "e-sud" platformasini olaylik. Bu platformada sudga arizani masofadan onlayn tarzida berishimiz, sud hujjatlarini va ajrimlarini kuzatishimiz va tahlil qilishimiz mumkin.[6] Yana "lex.uz" va "lex.ai" ni olaylik. Bu ikki platforma o'z-o'zidan bir biriga bog'liq. Lex.uz O'zbekistonning qonun hujjatlar bazasi hisoblanadi.[7] "lex.ai" esa "lex.uz" dagi ma'lumotlardan hujjatlardan va ularni sharxlaridan foydalanib, berilayotgan huquqiy savollarga va vaziyatlarga javob beradigan chatbot hisoblanadi.

Xalqaro platformalarga keladigan bo'lsak, DoNotPay ilovasi ham huquqiy chatbot hisoblanib, iste'molchilarni huquqlarini himoya qilish uchun berilgan barcha savollarga huquqiy javob berish amaliyotini bajaradi.[8] NexisLexis esa, AQSHning qonunchilik hujjatlari bazasi hisoblanadi. Unda sud qarorlari, qonunlar, normativ – huquqiy hujjatlarni o'zida jamlagan tizimdir.[9]

Natijalar shuni ko'rsatadiki, yuqorida keltirilgan misollarga asoslanib legal tech an'anaviy huquq tizimidan ko'ra samaraliroq va tezroq natija beradi. Bunda fuqarolar masofadan turib turli huquqiy xizmatlardan foydalanishi mumkin. Masalan, yuqorida aytilgan "my.gov.uz" saytida davlat xizmatlaridan bemalol masofadan turib foydalanishimiz, pasportni yangilash uchun onlayn ariza tashlashimiz, elektron raqamli imzo olishimiz va

muddatini uzaytirishimiz, yashash joyi to‘g’risidagi ma’lumotlarni olishimiz, jamiyki sohalarda ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hamda sog’liq sohasida ham murojaat qilishimiz mumkin. [9] Uning eng katta afzalliklaridan biri vaqt va masofa hamda korrupsion holatlar bo‘lmasligi hisoblanadi. An’anaviy huquqda fuqarolar o‘zlarining ish vaqtida davlat xizmatlaridan foydalanishi uchun borishi nabat kutishi kerak. Ba’zi holatlarda esa korrupsion holatlar ham kuzatilishi mumkin. Va chatbotlarni olaylik shaxslar o‘zlariga kerak bo‘lgan masalalar bo‘yicha advokatga emas balki, chatbotlarga murojaat qilib huquqiy ma’lumotlar olishi va boshqa organlarga murojaat qilishi uchun tayyor shartnoma qoliblarini ham berishi mumkin. Hattoki huquqiy chatbotlar hujjatlarni tahlil qilishga ham yordam beradi bu vaqtni tejaydi. An’anaviy huquqda sizga advokat o‘z vaqtini ajratganligi uchun siz unga katta miqdorda pul to‘laysiz. Bundan tashqari qo‘lda hujjatlarni tahlil qilish ancha vaqt oladi va ba’zi hatoliklar bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Ammo, tanganing ikkinchi tarafi bor degandek, legal techning ham o‘ziga yarasha kamchiliklari bor. Masalan, xalqning yetarli darajada huquqiy texnikaviy savodxonligi yetarli emasligi. Agar biz legal techni rivojlantiraversag-u, xalqning savodxonlik darajasiga e’tibor bermasak, qilinayotgan barcha islohotlar hech qachon o‘zining samarasini bermaydi. [8] Va yana sun’iy intellekt qaror qilayotgan qarorlari va berayotgan huquqiy ma’lumotlari har doim ham to‘g’ri bo‘lmasligi mumkin, chunki sun’iy intellekt vaziyatni to‘g’ri baholay olmasligi va vaziyatda qanday his tuyg’ular va kechinmalar bo‘lganligini tushuna olmaydi hamda bu bir qancha muammolarga sabab bo‘ladi. Sababi sudyalar o‘zlarining simpatiyalaridan va insonning kechinmalaridan ham kelib chiqib, barcha narsani hisobga olgan holda qarorlar qabul qiladi. Va o‘z-o‘zidan menda savol tug’ildi, agar sun’iy intellekt noto‘g’ri ma’lumot bersa , o‘sha noto‘g’ri qaror uchun kim javobgar bo‘ladi? Shu masala bo‘yicha hali hech qanday tartibga soluvchi qonun qabul qilinmaganligi achinarli holat deb hisoblayman va taklif qilaman-ki, aynan legal techni to‘lliq tartibga solish uchun yetarlicha qonun hujjatlari ishlab chiqilishi kerak. Bunga qo‘shimcha ravishda ma’lumotlar maxfiyligi va xavfsizligi muammosi yuzaga keladi. Bilamizki, huquqiy ma’lumotlar ba’zasi fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlarini saqlaydi. Ularning xavfsizligi esa hali hanuz to‘lliq muxofaza etilganicha yo‘q. To‘g’ri, hali kvant texnologiyalari yaratilganli yoq, ammo, u yaratilguniga qadar platformalar blokcheyn texnologiyalari kabi xavfsizroq tizimga o‘tkazilishi kerak deb hisoblayman. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, legal techni rivojlantirish yaxshi natija beradi, agar biz uni to‘lliq xavsizligini ta’minlasak, tartibga solish uchun yetarli qonun hujjatlarini ishlab chiqsak va aholining huquqiy texnologik savodxonligini oshirsak.

Legal tech va an’anaviy huquqning kamchilik va afzalliklari bir – birini to‘ldirib turadi. Shu sababli an’anaviy huquq bilan legal techni bir – biriga qarshi tushuncha sifatida tushunmasligimiz zarur. Bu ikkisi birgalikda rivojlanishi uchun yangi, mukammal qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqishimiz va boshqa kamchiliklarni bartaraf etishimiz zarur. Ana o‘shnda O‘zbekiston kelajakda raqamli boshqaruv bo‘yicha yetakchi davlatlarga aylanadi. Legal Tech huquqiy xizmatlarni

soddalashtiradi va fuqarolar uchun qulay qiladi, shu orqali an’anaviy huquq tizimini zamonaviy bosqichga olib chiqadi hamda adolatga erishish jarayonini tezlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. (2020). *“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida* PF-6079-son Farmon. Qabul qilingan sana: 5 oktyabr 2020 yil. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2021). *Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida*gi Qonun (O‘RQ–682-son). Qabul qilingan sana: 22 iyun 2021 yil. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portalida. (n.d.). *My.gov.uz - Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali haqida* [Web-sahifa]. Retrieved November 10, 2025, from
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining axborot tizimi. (n.d.). *E-SUD - elektron sudlov axborot tizimi haqida* [Web-sahifa]. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi orqali e’lon qilingan. Retrieved November 10, 2025, from
5. Luminance. (n.d.). *Luminance - Legal-grade AI for contract review*. Luminance.
6. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portalida. (n.d.). *My.gov.uz - Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali haqida* [Web-sahifa]. Retrieved November 10, 2025.
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining axborot tizimi. (n.d.). *E-SUD - elektron sudlov axborot tizimi haqida*. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi orqali e’lon qilingan. Retrieved November 10, 2025, from
8. DoNotPay Inc. (n.d.). *DoNotPay - The world’s first robot lawyer*. Retrieved November 10, 2025.
9. LexisNexis. (n.d.). *LexisNexis - Legal research and data analytics platform*. Retrieved November 10, 2025, from